

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA KOMMUNIKATSIYALARINI
RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI
TOSHKENT AXBOROT TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI

AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA
IQTISODIYOT VA MENEJMENT FAKULTETI
AXBOROT KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA
IQTISODIYOT KAFEDRASI
KOMMUNIKATSIYA SOHASINING IQTISODIYOTI FANIDAN

KURS ISHI

AKT sohasi korxonalarining ish samaradorligini
baholash

Variant 4

Bajardi :110-13 guruh Yusupov O.

Tekshirdi: Nurmatova D.

Toshkent

Mundarija

I.	3
Kirish.....	
II. Asosiy qism.....	6
1. 1 topshiriq. Korxonaning 4- va 5- yildan kutayotgan daromadini aniqlash.....	6
2. 2 topshiriq. Xizmatlar ko‘rsatish xarajatlari	10
III. Xulosa	16
IV. Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati	17

Kirish

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 4 fevraldagi PF-4702-son Farmoniga muvofiq tashkil qilindi.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligini tashkil qilishdan asosiy maqsad – Davlat boshqaruvi tizimini yanada takomillashtirish, mamlakat iqtisodiyoti tarmoqlari va sohalarida zamonaviy axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini, «elektron hukumat» tizimi hamda axborot tizimlarini jadal tatbiq etish, telekommunikatsiya infratuzilmasini va ma'lumotlarni uzatish tarmoqlarini modernizatsiya qilishdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalarini rivojlantirish vazirligining asosiy vazifalari:

- axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida, «elektron hukumat»ni joriy etishda yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlash, axborot texnologiyalarini rivojlantirishning jahon darajasidan kelib chiqqan holda milliy axborot-kommunikatsiya tizimini tatbiq etish va rivojlantirish yuzasidan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

- «elektron hukumat»ni tatbiq etish, vazirliklar, idoralar, kompaniyalar va uyushmalarning, mahalliy davlat hokimiyati organlarining axborotlashtirish va interaktiv davlat xizmatlarini takomillashtirish borasidagi faoliyatini idoralararo muvofiqlashtirish, monitoring qilish, baholash va nazorat qilish bo'yicha davlat dasturlarining amalga oshirilishini ta'minlash, shuningdek, davlat axborot resurslari hamda ma'lumot bazalarini shakllantirish, saqlash va foydalanishning yagona tizimini vujudga keltirish, idoralararo axborot tizimlarini yaratish va boshqarish;

- Internet tarmog'ining milliy segmenti yanada shakllantirilishini ta'minlash, mamlakatimizning turli yo'nalishlardagi zamonaviy veb-resurslarini, shu jumladan, aholining, xususan, yosh avlodning axborotga bo'lgan va intellektual

talab-ehtiyojlarini qondirish maqsadida tarmoq resurslarini rivojlantirish uchun zarur texnik va qulay shart-sharoitlarni yaratish;

- aloqa, axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalar sohasida xalqaro hamkorlikni yo'lga qo'yish, ustuvor loyihalarni amalga oshirish, radiochastotalik spektrdan samarali foydalanish uchun hamda vazirlik faoliyati doirasiga kiruvchi boshqa yo'nalishlar bo'yicha xorijiy investitsiyalarni jalb etish.

AKT sohasi xalq xo'jaligi sohalaridan biri hisoblanadi. Ushbu sohaning asosiy vazifasi aholi va xalq xo'jaligining aloqa xizmatlari va vositalariga bo'lgan talabini qondirishdan iboratdir. Boshqacha qilib aytganda, xalq xo'jaligidagi aloqa bu - shaxs va jamiyatning turli ko'rinishdagi axborotlarni almashishga bo'lgan ehtiyojlarni qondirishga qaratilgan. AKT sohasining ishlab chiqarishdan farqi shundaki, sohadagi mehnat predmeti ashyoviy bo'lmaydi. Umumjamiyat ishlab chiqarishining samarali ishlashi uchun katta rol o'ynaydigan barcha sohalar sohaviy ishlab chiqarish infratuzilmasi deb ataladi. Bu sohalarga aloqa sohasi bilan birga transport, yo'l qurish, moddiy-texnik ta'minot kabi sohalar kiradi. Aloqa vositalarining rivojlanishi mamlakatning milliy daromadini oshirishga va butun xalq xo'jaligini samarali ishlashiga turtki bo'ladi.

Berilgan ma'lumotlar

1-topshiriq


Aniqlansin:

4-yilda Texnik qurilmalar o'rnatishdan daromad

4- va 5- yillar xizmatlar xajmi o'sishi

1-jadval

Iste'molchilar sturkturasi



2-jadval

Iste'molchilar turiga qarab bitta foydalanuvchining bir yilda telefon apparati orqali o'rnatilgan normadan ortiqcha suhbatlashishning o'rtacha vaqti

FOYDALANUVCHILAR	1-YIL	2-YIL	3-YIL
AHOLI	1000	1200	2000
BUDJET TASHKILOTLAR	2000	2500	3600
NOBUDJET TASHKILOTLAR	4000	4900	7000

3-jadval

Yangi ATSGa har oylik TQlarni berilishi

yanvar	1000	aprel	0	iyul	0	oktabr	1000
fevral	1000	may	1000	avgust	4000	noyabr	0
mart	2000	iyun	0	senatbr	0	dekabr	0

Joriy ta'rif rejalari (so'm)

	Aholi	Budjet tashkilotlar	Nobudjet tashkilot
TQ ni o'rnatish	20700	32640	39900
Abonent to'lovi	1200	1800	3200
Yuqori limit	6	6	6

Nazariy qism

Ko'rsatilgan xizmatlar hajmi va xarakatdagi tariflar ko'paytmasi aloqa korxonalarining asosiy faoliyatdan daromad deb ataladi. Aloqa sohasidagi asosiy faoliyatidan daromad umumiy holda sotilgan aloqa xizmatlarining pul shaklidagi qiymatini o'zida aks ettiradi.

Asosiy faoliyatdan daromad aloqa tarmog'ining yo'nalishlari bo'yicha, har qaysi yo'nalish bo'yicha esa daromad manbai bo'yicha o'rganiladi.

Shaharlararo telefon va telegraf kanallarini, televizion va tovushli eshittirish kanallarini ishlatish uchun to'lanadigan ijara to'lovlari ko'rinishida olinadigan daromadlar ularni xarakat vaqtini hisobga olgan holda kanal uzunligi va o'rnatilgan tariflarga bog'liq bo'ladi. Radioaloqa, radioeshittirish va televideniya vositalarining ishlashi uchun soatbay to'lovlar ko'rinishidagi daromadlar radio uzatuvchi va qabul qiluvchi qurilmalarning ishlash soati va uzatgichning quvvatiga hamda bir soat ish uchun belgilangan tarifga bog'liq holda rejalashtiriladi.

Daromadlarning bir qismi vaqtbay to'lov ko'rinishida shakllanadi, bu shaharlararo va mahalliy so'zlashuvlar uchun taalluqlidir. Bir martalik aloqa xizmati ko'rsatishdan olinadigan daromad (xat, posilka, banderol, telegramma jo'natish), ularning miqdori va o'rnatilgan tariflarga bog'liq bo'ladi. Asosiy faoliyatdan daromadni rejalashtirishda *o'rtacha daromad taksasi* ham ishlatiladi.

O'rtacha daromad taksasi bir umumlashtirilgan pulli xizmatni ko'rsatishdan tushadigan o'rtacha daromadni xarakterlaydi. Masalan, shaharlararo telefon so'zlashuvlari uchun tarif butun so'zlashuv uchun emas, balki bir minut

mobaynidagi soʻzlashuv uchun oʻrnatiladi. Bu holda tariflar tarif zonalarini boʻyicha taqsimlanadi.

Oʻrtacha daromad taksasi barqaror boʻlmaydi va uni rejalashtirishda bir necha yil va joriy yilning choraklari mobaynida daromad taksasining oʻzgarishi holda uning oʻzgarishiga taʼsir etuvchi omillar hisobga olinadi (mijozlar tarkibi, almashuv tuzilmasi, talabning toʻlov layoqati va boshqalar). Oʻrtacha daromad taksasini hisobga olgan holda bir martalik aloqa xizmatini koʻrsatishdan olinadigan daromadlar rejalashtiriladi va miqdori aniqlanadi. Amaliyotda oʻrtacha daromad taksasi oʻzlik daromadlarining almashuvlar soniga nisbatan aniqlanadi.

Foydalaniladigan formulalar

$$\sum \mathcal{D}_{od} = \sum_{i=1}^n q_i \times U_i + \sum_{j=1}^n N_j \times U_j$$

$\sum \mathcal{D}_{od}$ - Asosiy faoliyatdan daromad;

q_i, N_j – xizmatlar xajmi;

$U_i, s_j - 1$ bajarilgan xizmatlar turlari taʼriflari;

n – xizmatlar soni.

$$\bar{N} = N_{H2} + \Delta \bar{N}$$

N_{H2} – yil boshiga texnik qurilmalar soni;

$\Delta \bar{N}$ – texnik qurilmalarning oʻrtacha yillik oʻzgarishi .

$$\mathcal{D}_{obu4} = \mathcal{D}_{ycm4} + \mathcal{D}_{ab4} + \mathcal{D}_{cvn4} + \mathcal{D}_{np4}$$

$$\mathcal{D}_{vct} = \sum N_i \times U_i$$

$S_i - 1$ guruh isteʼmolchilariga texnik qurilmani oʻrnatish narxi.

Abonent toʻlovi $\mathcal{D}_{ab}$:

$$\mathcal{D}_{ab} = \sum \Delta \bar{N} \times d_i \times U_i \times 12, \quad (4)$$

$\Delta \bar{N}$ - texnik qurilmalar sonini o'rtacha o'sishi;

d_i – I gurux iste'molchisi

S_i - 1 gurux iste'molchilarining oylik foydalanilgan xizmatlar uchun abonent to'lovi

5-jadval

Xizmatlar ko'rsatish xajmi

Iste'mochilar	q _i almashuvi		dinamika		(N _j) Texnik asboblarga xiz. ko'r		
	4-yil	5-yil			4-yil	5-yil	
	q ₄	q ₅	abs	nisbiy	N ₄ =ΔN ₄	ΔN ₅	N ₅ =N ₄ +ΔN ₅
aholi	2828	4000	1172	1,414	4933	3067	8000
budjet tashkilotlar	4830	6480	1650	1,342	308	192	500
nobudjet tashkilotlar umumiy	9260	12250	2990	1,323	925	575	1500
	16918	22730	5812	1,344	6167	3833	10000

Kommunikatsiya sohasi korxonalari iste'molchilarga - aholi va xalq xo'jaligiga ikki yuzdan ortiq turli aloqa xizmatlarini ko'rsatadi (shaharlararo va xalqaro telefon so'zlashuvlar, telegrammalarni qabul qilish va yetkazib berish, radionuqtalar va telefon apparatlari va boshqalar).

Kommunikatsiya sohasining asosiy xususiyatlaridan biri - bu bir aloqa korxonasi doirasida tugallanmagan ishlab chiqarish jarayonidir (shaharlararo yoki xalqaro aloqa xizmati ko'rsatishda), ya'ni bir stansiya faoliyat yuritishi uchun bir necha stansiya ishlashi kerak.

(6 jadval)

Daromadlar

ko'rsatkichlar	ifodalanishi	pul birligi (so'm)			
		aholi	byudjet tashkilotlar	no byudet tashkilotlar	umumiy
<u>Umumiy daromad</u>	D _{um}				
davrlar	4-yil	294024189,2	29402206,27	144680511,8	468106907,3
	5-yil	444408000	43753600	231076500	719238100
Dinamika	absolyut	150383810,8	14351393,73	86395988,17	251131192,7
	nisbiy	1,511467479	1,488106015	1,597150142	1,536482562
T.Q. lar o'rnatishdan daromad	D _{T.Q.}				
davrlar	4-yil	102120000	10064000	36907500	149091500
	5-yil	63480000	6256000	22942500	92678500
Dinamika	absolyut	-38640000	-3808000	-13965000	-56413000
	nisbiy	0,621621622	0,621621622	0,621621622	0,621621622
Abonent to'lovidan daromad	D _{ab}				
davrlar	4-yil	71040000	6660000	35520000	113220000
	5-yil	115200000	10800000	57600000	183600000
Dinamika	absolyut	44160000	4140000	22080000	70380000
	nisbiy	1,621621622	1,621621622	1,621621622	1,621621622
limitdan tashqari so'z daromad	D _{lt}				
davrlar	4-yil	83721442,89	8935327,638	51393719,22	144050489,7
	5-yil	192000000	19440000	110250000	321690000
Dinamika	absolyut	108278557,1	10504672,36	58856280,78	177639510,3
	nisbiy	2,29331929	2,175633708	2,145203766	2,23317533
Operatsion daromad	D _{op}				
davrlar	4-yil	37142746,29	3742878,633	20859292,61	61744917,54
	5-yil	73728000	7257600	40284000	121269600
Dinamika	absolyut	36585253,71	3514721,367	19424707,39	59524682,46
	nisbiy	1,984990539	1,939042302	1,931225605	1,964041816

Bu jadvalda korxona daromadlari haqidagi o'zgarishlar o'z aksini topgan, texnik qurilmalardan 4-yilda tushishi kutilayotgan tushum 5-yilga tushishi kutilayotgan tushumdan kam bo'lishi kutilmoqda sababi 5-yilda texnik qurilmalar soni o'rtacha o'sishi(3833) 4-yildagiga qaraganda(6167) past bo'lishi mumkin. Xizmat ko'rsatishdan daromad esa , limitdan tashqari so'zlashuvdan tushum va abonent to'lovidan tushgan tushumni absolyut qiymatlaridan shuni aniqlash mumkini, iste'molchilar belgilangan ta'rifdan ko'p so'zlashishlari kutilmoqda.

Berilgan ma'lumotlar va 1-topshiriq natijalaridan foydalanib

4- va 5-yillar yangi AS ekspluatatsiyasi uchun quyidagilar aniqlansin:

- 1. Aloqa xizmatlar tannarxi**
- 2. Sof foyda**

Aloqa xizmatlar tannarxi – bu korxona faoliyatini umumlashtiruvchi ko'rsatkichlardan biri hisoblanadi va bir birlik mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish uchun sarflangan ishlab chiqarish xarajatlarini xarakterlaydi. Tannarx ishlab chiqarish vositalari iste'mol xarajatlarini mehnatga haq to'lash hamda ishlab chiqarish va sotishning boshqa omillarining pul shaklidagi qiymatining bir qismini aks ettiradi. Tannarx korxonaning texnologiyasini va texnik jihozlanganligini, resurslarni ishlatishini, mehnat unumdorligidagi darajasini aks ettiradi.

Aloqa korxonasi iste'molchilarga xizmatlar ko'rsatishi uchun aniq bir ish hajmini bajarishi lozim, buni esa, o'z navbatida, zaruriy xarajatlarsiz amalga oshirish mumkin emas. Bu xarajatlar joriy yoki ekspluatatsion xarajatlar deb ataladi. Bundan tashqari, realizatsiya qilingan mahsulot tannarxi ham shu ma'noni beradi. Korxona amalga oshiradigan harajatlarning ba'zilar tannarx tarkibiga kiritilmaydi, chunki mavjud qonunlar bo'yicha ular boshqa manbalar hisobiga amalga oshirilishi lozim.

Bundan tashqari, korxona ish amaliyotida joriy harajatlari ham uchraydi, ularni tannarx tarkibiga qo'shib bo'lmaydi. Masalan, kelgusi davr harajatlari, oldindan ijara badallarini to'lash yoki material zahiralarini sotib olish va boshqa harajatlari. Bunday harajatlari tannarxga ishlatish darajasi bo'yicha yoki aniq xarakter qilish muddati mobaynida kiritilishi lozim. Shunday qilib, ko'rsatilgan xizmatlar tannarxi aniq vaqt intervalida harajatlardan kam bo'lishi mumkin.

Hozirgi vaqtda butun bir soha bo'yicha va alohida korxonalar bo'yicha 100 so'm daromad tannarxi hisoblanadi. Bu ko'rsatkichning iqtisodiy mazmuni-100 so'm daromad olish uchun qancha joriy harajatlari kerakligini aniqlashdir:

$$TN = E * 100 / D_{af}$$

Bu yerda:

TN - 100 so'm daromad tannarxi;

E-ekspluatatsion xarajatlar

D_{af}- daromad.

Xizmatlar tannarxi korxonaning ishlab chiqarish va sotish harajatlarini o'zida mujassamlaydi hamda harajatlar va daromadlarning asosiy o'lchagichi bo'lib xizmat qiladi.

Aloqa korxonalarida ekspluatatsiya harajatlari quyidagi tarkibga ega;

1. Mehnatga haq to'lash xarajatlari;
2. Davlat ijtimoiy sug'urtasiga ajratmalar (nafaqa, ijtimoiy sug'urta, bandlik fondlariga);
3. To'liq qayta tiklash uchun amortizatsiya chegirmalari;
4. Material zahiralari (materiallar, yoqilg'i, ehtiyot qismlari va b.q);
5. Ishlab chiqarish ehtiyojlari uchun elektr energiyasi;
6. Aloqa korxonalari bilan shartnoma bo'yicha hisob-kitoblar;
7. Transport harajatlari;
8. Markalashtirilgan mahsulot sotib olish uchun xarajatlar;
9. Boshqa xarajatlar:
 - banklarning qisqa muddatli ssudalariga % (foiz) to'lash va bank xizmatlariga to'lovlar;
 - reklama, vakillik xarajatlari;
 - marketing tadqiqotlari uchun xarajatlar;
 - ijara xarajatlari;
 - remont fondi (ta'mirlash);
 - ba'zi soliq turlari (transport, yer, yo'l fondiga ajratmalar);
 - nomoddiy aktivlarning eskirishi.
10. Umumxo'jalik va ma'muriy-boshqaruv xarajatlari.

Aloqa korxonalari ekspluatatsiya harajatlarning tarkibi sohaning spesifikasiga bog'liq holda o'zgarishi mumkin.

Tannarx tuzilmasi deganda, uning tarkibiga kiruvchi alohida elementlar va xarajat qismlari orasidagi nisbat tushuniladi, ya'ni ekspluatatsion xarajatlarning umumiy yig'indisida har bir xarajat qismining ulushi ko'rsatadi.

Tannarx tuzilmasi tarmoqning xususiyatlariga bog'liq bo'ladi. Bu bog'liqlik tarmoqning texnika bilan jihozlanganligini, avtomatizatsiya darajasiga, yaratilayotgan mahsulot hajmiga, texnologik jarayonlar xarakteriga qarab aniqlanadi.

Birlik ish hajmining tannarxi ushbu xususiyatlarni aniqlash va tannarxni kamaytirish zahiralari topish imkonini beradi. Birlik ish hajmining tannarx tuzilmasining asosiy xususiyati bo'lib, jonli va ashyoviy mehnat xarajatlarning nisbati xizmat qiladi. Bu nisbat mehnatning yoki fondning qay darajada zarur ekanligini ko'rsatadi. Mehnatni ko'p talab etadigan sohalarda tannarx tarkibida mehnatga haq to'lash asosiy ulushni egallaydi, fondni ko'p talab etadiganlarda esa amortizatsiya chegirmasi nisbatan yuqori bo'ladi. tannarxni kamaytirish korxona iqtisodiyoti zaruriy omillaridan biri hisoblanadi.

Kalkulatsiya – bu birlik ish hajmining tannarxini barcha elementlar va harajat qismlari bo'yicha hisoblashdir.

Kalkulatsiya butun korxona bo'yicha, alohida sexlar bo'yicha va ishlab chiqarish uchastkalari bo'yicha alohida ishlar tannarxini xarakterlaydi va ishlar sifatini baholash, zahiralarni aniqlash va ishlab chiqarish alohida uchastkalarida tannarxni kamaytirish yo'llari bo'yicha zaruriy vosita hisoblanadi. Birlik ish hajmi tannarxini kalkulyatsiyalash uchun alohida elementlar va xarajat qismlari bo'yicha daromad va ekspluatatsiya xarajatlarni aniqlash lozim. (7,8- jadvallar)

O'zining tuzilishi ko'ra hamda maqsadi va davriga bog'liq holda **hisobot va reja kalkulyatsiyasi** mavjud. **Reja kalkulyatsiyasi** reja davrida tannarxni kamaytirish bo'yicha vazifani hisoblash uchun tuziladi. **Hisobot kalkulyatsiyasi** esa mahsulot tannarxini kamaytirish bo'yicha berilgan rejaning bajarilishi tekshiradi va shu bilan birga kelgusi yil uchun tannarxni kamaytirish bo'yicha reja uchun boshlang'ich ma'lumot bo'ladi.

Ekspluatatsion xarajatlar

Ekspluatatsion xarajatlar	Ifoda $C_j(um)$ so'm		Dinamika	
	4-yil	5-yil	Absolyut	Nisbiy
	$C_{4um} = C_4 * N_4$	$C_{5um} = C_5 * N_5$		
Ishlab chiqarish tannarxi	123333333,3	240000000	116666666,7	1,945945946
Ish haqqi	30833333,33	60000000	29166666,67	1,945945946
Ijtimoiy sug'urta	12333333,33	24000000	11666666,67	1,945945946
Amartizatsiya	61666666,67	140000000	78333333,33	2,27027027
Elektr energiya xarajatlari	6166666,667	6000000	-	0,972972973
Boshqa xarajatlar	12333333,33	10000000	-	0,810810811
Davr xarajatlari	74000000	140000000	66000000	1,891891892
Realizatsiya xarajatlari	18500000	9000000	-9500000	0,486486486
Ma'muriy xarajatlar	18500000	40000000	21500000	2,162162162
Boshqa operatsion xarajatlar	37000000	91000000	54000000	2,459459459
Umumiy	197333333,3	380000000	182666666,7	1,925675676

Yuqorida keltirilgan jadvalda ekspluatatsion xarajatlarning 4- va 5- yillar uchun taxminiy qiymatlari keltirilgan , bundan shuni aniqlash mumkinki 5-yilda bo'lishi mumkin bo'lgan xarajatlar 4-yilga qaraganda ko'proq , buning sababi 4-yilda texnik qurilmalarning 64% va 5-yilga kelib 100% ishlatilishi reja qilingan.

Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda = Sof tushum – Xizmatlarning tannarhi;

Asosiy faoliyatdan foyda = Xizmatlar ko'rsatishdan yalpi foyda – Davr xarajatlari +Boshqa daromatlar – Boshqa xarajatlar;

Umumxo‘jalik faoliyatdan foyda = Asosiy faoliyatdan foyda + Moliyaviy faoliyatdan foyda - Moliyaviy faoliyatdan zarar;

Daromat solig‘i to‘langunga qadar foyda = Umumxo‘jalik faoliyatdan foyda + Favqulotda Foyda – Favqulotda zarar;

Sof foyda = Daromat solig‘i to‘langunga qadar foyda – Daromat solig‘i – Boshqa soliqlar va to‘lovlar. (9- jadval)

8-jadval

Xarajat turlari	Ifoda C _j (um) so‘m		Dinamika		struktura	
	4-yil C ₄	5-yil C ₅	Absolyut	Nisbiy	4-yil dbaz	5-yil
Ishlab chiqarish tannarxi	26,35	51,27	24,92	1,95	100%	100%
Ish xaqi	6,59	12,82	6,23	1,95	25%	25%
Ijtimoiy sug‘urta	2,63	5,13	2,49	1,95	10%	10%
Amartizatsiya	13,17	29,91	16,73	2,27	50%	58%
Elektr energiya xarajatlari	1,32	1,28	- 0,04	0,97	5%	3%
Boshqa xarajatlar	2,63	2,14	- 0,50	0,81	10%	4%

Keltirilgan ushbu 8-jadvalda korxona xarajatlarining umumiy tushumadagi ulishini ko‘rsatadi. Bundan shuni aniqlash mumkinki 5-yilda texnik qurilmalarning 100% foydalanish realanganligi sababli xarajatlar ulushi 4-yilda kutilayotgan ko‘rsatkichdan yuqori bo‘lishi mumkinligini bildiradi.

9-jadval

Sof foyda hisoboti					
Ko'rsatkichlar	Bel.	So'm		Dinamika	
		4-yil	5-yil	Absolyut	Nisbiy
Realizatsiyadan tushum	Rt	468106907,3	719238100	251131192,7	1,53648256
QQS	Qqs	93621381,46	143847620	50226238,54	1,53648256
Ishlab chiqarish tannarxi	It	123333333,3	240000000	116666666,7	1,94594595
Yalpi foyda	Yp	251152192,5	335390480	84238287,5	1,33540733
Davr xarajatlari	Dx	74000000	140000000	66000000	1,89189189
Asosiy faoliyatdan daromad	Ad	177152192,5	195390480	18238287,5	1,10295265

Umumxo'jalik faoliyatdan daromad	Ud	177152192,5	195390480	18238287,5	1,10295265
Soliq to'laguncha foyda	F	177152192,5	195390480	18238287,5	1,10295265
Foyda soliqi	Fs	13286414,44	14654286	1367871,563	1,10295265
Sof foyda	Sf	163865778,1	180736194	16870415,94	1,10295265

Realizatsiyadan tushum 4- va 5- yillarda shartli ravishda 468106907,3 va 719238100 so'm bo'lishi kutilmoqda, xizmatlar ko'rsatishning tannarxi esa 4-yil uchun 123333333,3 so'm va 5-yil uchun 240000000 bo'lishi taxmin qilinmoqda bu esa yalpi foydani 251152192,5 va 335390480 so'm bo'lishini bildiradi. Korxona moliyaviy daromad va xarajatlari bo'lmagan bu esa asosiy faoliyatdan daromadni umumxo'jalik faoliyatdan daromadga teng chiqishini, va favqulotda daromad va zarar bo'lmagani sabab soliq to'lagunga qadar foydani teng chiqishini anglatadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, Mahsulotni sotishdan olinadigan foyda miqdori ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Ichki omillar-korxonada zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy qilish, xo'jalik yuritish darajasi, rahbariyat va menejmentining mas'uliyati, mahsulotning raqobatbardoshligi, ishlab chiqarish va mehnatni tashkil etish darajasidir. Korxona faoliyatiga bog'liq bo'lmagan tashqi omillar qatoriga esa, bozor kon'yunkturasi, iste'mol qilinuvchi moddiy-texnik resurslarning bahosi, amortizatsiya me'yori, soliq tizimi kabilar kiradi.

Korxonada foydani oshirishning asosiy yo'llari. Har bir korxonada foydani oshirish bo'yicha rejali chora-tadbirlar ko'zda tutilishi kerak. Umuman olganda, bunday chora-tadbirlar quyidagilardan iborat bo'lishi mumkin:

- ishlab chiqarilayotgan xizmatlar miqdorini oshirish;
- ishlab chiqarilayotgan xizmatlar sifatini oshirish;
- ortiqcha asbob-uskunalar yoki boshqa mulkni sotib yuborish yoki ijaraga berish;
- moddiy resurslar, ishlab chiqarish quvvatlari va maydonlari, ishchi kuchi va ish vaqtidan unumliroq foydalanish hisobiga mahsulot tannarxini pasaytirish;
- mahsulot bozorini kengaytirish va hokazolar.

Aloqa korxonalari xizmatlari tannarxi sistematik tarzda kamayib boradi, biroq ularning har biri ishlatilmagan zahiraga ega bo'ladi. Zahiralar aniq matematik hisoblar yoki iqtisodiy tahlil natijasida aniqlangan ishlab chiqarish xarajatlarini ma'lum miqdorda tejash imkoniyatidir. Aloqa korxonalarida xizmatlar tannarxini kamaytirishning asosiy zahirolari mehnat unumdorligini oshirish ishlab chiqarish fondlarni ishlatishni yaxshilash, elektr energiyani tejash, ishlar hajmini oshirish hisoblanadi.

Tannarxni kamaytirishga ta'sir etuvchi omillar 2 guruhga ajratiladi:

1. **Xalq xo'jaligidagi omillar.** Korxonaga bog'liq bo'lmaydi; ularga materiallar va energiya ulgurji bahoni ta'rif stavkasining, lavozim okladini ijtimoiy sug'urtaga chegirmalarning, amortizatsiya normasi va boshqalarning o'zgarishi.

2. **Sohaviy omillar.** Bu aloqa sohasiga bevosita bog'liq bo'lgan omillar hisoblanadi. Mamlakatda aloqa vositalarini ratsional joylashtirish, aloqaning iqtisodiy tizimini yaratish, yangi texnika va texnologiyalarni kiritish va boshqalar sohaviy omillarga misol bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Voxobov A.V., Ibragimov A.T. Moliyaviy tahlil. - T. «Shark» 2002.
2. Abdukarimov M.T. Moliyaviy hisobotni o'qish va tahlil qilish. - T. «Iqtisodiyot va huquq dunyosi» 1999.
3. O'zbekiston Respublikasining «Buxgalteriya hisobi to'g'risida»gi konuni – T. «O'zbekiston», 1996.
4. Голубиская Е.А., Жигулская Г.М. Экономика связи. – М: Радио и связь, 2008.
5. Налоговый кодекс республики Узбекистан, 2011.
6. Экономика связи. Под ред. О.С.Срапионова М.: Радио и связь, 2011
7. Положение о составе затрат на производство и реализацию продукции (работ, услуг) и о порядке формирования финансовых результатов. Постановление Кабинета Министров Республики Узбекистан
8. Основы экономики телекоммуникатий (связи). Учебник для вузов/ М.А. Горелик и др.- М.: Радио и связь, 2010